# Ilmiy kadrlarni tayyorlash tizimi va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilindi

Fanlar akademiyasida Vazirlar Mahkamasi, tegishli tizim tashkilotlari va  mas'ullari ishtirokida o'tkazilgan iqtisodiy o'qishda FA Ilmiy kadrlar bo'limining 2019-2023 va 2024-yillar holati bo’yicha ilmiy kadrlarni tayyorlash tizimi va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilindi.








Fanlar akademiyasi tizimida jami 5343 nafar xodim (o’rtacha yoshi — 46), shu jumladan 2834 nafar ilmiy xodim (o’rtacha yoshi — 47,3), ulardan 494 nafar fan doktorlari (DSc) (o’rtacha yoshi — 56), 334 nafar fan nomzodi (o’rtacha yoshi — 57,3) va 511 nafar falsafa doktori (PhD) va (o’rtacha yoshi-38) faoliyat yuritmoqda.

2025 -yil holati bo’yicha Fanlar akademiyasi tizimida 32 ta tashkilotda oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari tashkil etilgan. Bugungi kunda mazkur tashkilotlarda jami 916 nafar, jumladan, 82 ta doktorant, 746 nafar tayanch doktorant, 88 nafar stajyor-tadqiqotchi va 130 nafar mustaqil izlanuvchilar tahsil olmoqda.

Bugungi kunda oliy ta’limdan keyingi ta’lim jarayoni quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi:
1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-sonli "Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida"gi Farmoni;
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizmini yanada takomillashtirish to’g’risida"gi qarori;
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 06-noyabrdagi 696-sonli “Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” qarori.

Iqtisodiy o’qish davomida Kadrlar bo’limi rahbari Dilorom To’rayeva tomonidan Fanlar akademiyasi tizimidagi doktorantura, tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchilar institutining 2019-2024-yillardagi samaradorligi to’g’risida tahliliy ma’lumotlar berildi.